BANKLARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI RO`LI VA VAZIFALARI.

To`rayeva Dilfuza Panjiyevna
TAFU, " Bank va moliya"
kafedrasi katta o`qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14901007

Annotatsiya: Maqolada banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari va ro`li, asosiy yo'nalishlari,pul-kredit siyosati va xorij tajribasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: markaziy bank, moliya bozori, tijorat banklari, birjalar, depozitariylar, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlar, davlat qimmatli qog`ozlari

Abstract:The article describes the tasks and role of banks and their role in the market economy, their main directions, monetary policy and foreign experience.

Keywords: central bank, financial market, commercial banks, stock exchanges, depositories, insurance companies, investment funds, government securities

Kirish.

Bugungi kunda banklar tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi lozim. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida O'zbekiston bank tizimi ishonchliligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda tashqi inqiroz holatlarining salbiy ta'siriga uchramaslikning oldini olish muhim ahamiyatga egadir. Shunga qaramasdan, hozirgi kunda banklarda bozor talablariga mos keluvchi xizmat turlarini tatbiq qilish, mijozlarning talab va takliflarini hisobga olish, ularga xizmat ko'rsatishning yangi usullarini joriy etish, yangi kredit vositalarini qo'llash, turli kredit institutlarini tashkil etish bilan bog'liq islohotlarni yanada jadallashtirish zarurligini yuzaga keltirmoqda.

Materiallarni olish texnologiyasi va tadqiqot usuli

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini yuqori va barqaror sur'atlarda o'sishini va raqobatbardoshligini ta'minlash mamlakat bank tizimining va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta'minlash zaruriyatini yuzagakeltiradi.Tijorat banklarining yuridik shaxs sifatida faoliyati omonatchilar, kreditorlar, umuman, davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy daxldor bo'lganligi tufayli uning tashkil topishi uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Shu vaqt ichida bo'lg'usi ta'sischilar o'rtasida o'zaro munosabatlar o'rnatiladi, bank ustav kapitali uchun zarur bo'lgan mablag'lar tayyorlanadi, rahbar shaxslar zarur hujjatlar tayyorlaydi,

tegishli tekshiruvdan o'tkaziladi va hokazolar. Bizga ma`lumki, moliya bozoridagi operatsiyalar moliya muassasalari vositasida amalga oshiriladi. Bunday mussasalarga turli xil banklar, birjalar, depozitariylar, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari, agentliklar va h.k.lar kiradi. «Bank» tushunchasi qadimiy fransuzcha bang va italyancha banc so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, sarrof kursisi,do'koni, pulli stol, stol-stul, dumaloq stol degan ma'nolarni (200 dan ortiq ma`nolari bor, chunki turli davlatlarda turlicha qarashlar va turlicha izohlar keltirilgan) anglatadi. Bunday tushuncha tarixchilarning taxminan 2000 yil muqaddam faoliyat ko'rsatgan bankirlar haqidagi ma'lumotlarida ham mavjud.Pul munosabatlarining rivojlanishi banklarni yuzaga keltirgan. Bank iqtisodiyot ishtirokchilarining pul yuzasidan bo'lgan aloqalariga xizmat qiluvchi institut (muassasa)dir. Pul bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotlar ko'p, ammo ularning markazida banklar turadi. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunida, bank nima, degan savolga quyidagicha javob topish mumkin:

Bank - tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir. Banklar pul olamini harakatga keltiruvchi motor - yurak, pul bilan bo'ladigan hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Hamma pul to'lovlari (transfertlar) banklar orqali o'tadi. Bank ishi pul olamida bo'ladigan biznesdir. Bank biznesi foyda topish maqsadida yuritiladi. Markaziy bankning monopollik mavqei uning mamlakatdagi pul va pirovard natijada iqtisodiy barqarorlik uchun alohida javobgar ekanligi bilan chambarchas bog'liq. Tijorat banklari Markaziy bankda o'z qisqa muddatli va o'rta muddatli majburiyatlaridan muayyan foiz hajmida eng kam zahira deb yuritiladigan foizsiz omonatlarni saqlashga majbur.

Eksperimental natijalar va ularning muhokamasi

Bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning

yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda qator tizimli muammolar soha rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-mayda qabul qilingan "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respubli kasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni ushbu masalalarni yechishga qo'yilgan muhim qadam bo'ldi. Bugungi kunda banklar tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi lozim. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida O'zbekiston bank tizimi ishonchliligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda tashqi inqiroz holatlarining salbiy ta'siriga uchramaslikning oldini olish muhim ahamiyatga egadir. Shunga qaramasdan, hozirgi kunda banklarda bozor talablariga mos keluvchi xizmat turlarini tatbiq qilish, mijozlarning talab va takliflarini hisobga olish, ularga xizmat ko'rsatishning yangi usullarini joriy etish, yangi kredit vositalarini qo'llash, turli kredit institutlarini tashkil etish bilan bog'liq islohotlarni yanada jadallashtirish zarurligini yuzaga keltirmoqda. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini yuqori va barqaror sur'atlarda o'sishini va raqobatbardoshligini ta'minlash mamlakat bank tizimining va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta'minlash zaruriyatini yuzagakeltiradi.Tijorat banklarining yuridik shaxs sifatida faoliyati omonatchilar, kreditorlar, umuman, davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy daxldor bo'lganligi tufayli uning tashkil topishi uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Shu vaqt ichida bo'lg'usi ta'sischilar o'rtasida o'zaro

munosabatlar o'rnatiladi, bank ustav kapitali uchun zarur bo'lgan

mablag'lar tayyorlanadi, rahbar shaxslar zarur hujjatlar tayyorlaydi,

tegishli tekshiruvdan o'tkaziladi va hokazolar. Bizga ma`lumki, moliya bozoridagi operatsiyalar moliya muassasalari vositasida amalga oshiriladi. Bunday mussasalarga turli xil banklar, birjalar, depozitariylar, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari, agentliklar va h.k.lar kiradi. «Bank» tushunchasi qadimiy fransuzcha bang va italyancha banc so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, sarrof kursisi,do'koni, pulli stol, stol-stul, dumaloq stol degan ma'nolarni (200 dan ortiq ma`nolari bor, chunki turli davlatlarda turlicha qarashlar va turlicha izohlar keltirilgan) anglatadi. Bunday tushuncha tarixchilarning taxminan 2000 yil muqaddam faoliyat ko'rsatgan bankirlar haqidagi ma'lumotlarida ham mavjud.Pul munosabatlarining rivojlanishi banklarni yuzaga keltirgan. Bank iqtisodiyot ishtirokchilarining pul yuzasidan bo'lgan aloqalariga xizmat qiluvchi institut (muassasa)dir. Pul bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotlar ko'p, ammo ularning markazida banklar turadi. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunida, bank nima, degan savolga quyidagicha javob topish mumkin:

Bank - tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir. Banklar pul olamini harakatga keltiruvchi motor - yurak, pul bilan bo'ladigan hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Hamma pul to'lovlari (transfertlar) banklar orqali o'tadi. Bank ishi pul olamida bo'ladigan biznesdir. Bank biznesi foyda topish maqsadida yuritiladi. Markaziy bankning monopollik mavqei uning mamlakatdagi pul va pirovard natijada iqtisodiy barqarorlik uchun alohida javobgar ekanligi bilan chambarchas bog'liq. Tijorat banklari Markaziy bankda o'z qisqa muddatli va o'rta muddatli majburiyatlaridan muayyan foiz hajmida eng kam zahira deb yuritiladigan foizsiz omonatlarni saqlashga majbur. Markaziy bank banklar faoliyatini nazorat qilishda o'zining mintaqaviy bo'linmalari orqali kredit muasasalaridan majburiy ravishda axborot, oylik hisobot va yillik yakuniy balans ma'lumotlarini taqdim etish asosida qatnashadi. Kredit muassasalarining bo'ysinishiga qarab bank qonunchiligi hamda

kredit tizimining pastdan yuqoriga tomon tarkibiy tuzilishiga muvofiq tarzda bank tizimini ikki asosiy: bir bosqichli va ikki bosqichli turga ajratish mumkin. Bir bosqichli bank tizimi doirasida barcha kredit muassasalari, jumladan, Markaziy bank ham, yagona bosqichda turadi hamda mijozlarga kredit - hisob xizmati ko'rsatishda bir xil vazifalarni bajaradi. Ikki bosqichli tizimda banklar o'rtasidagi o'zaro

munosabatlar bo'yiga (vertikal) va eniga (gorizontal) yo'nalishlarida tuzilishiga asoslanadi. Vertikal – rahbarlik qiluvchi, boshqaruvchi markaz hisoblangan Markaziy bank bilan quyi bo'g'inlar – tijorat va ixtisoslashgan banklar o'rtasidagi bo'ysunish munosabatlari, gorizontalturli quyi bo'g'inlar o'rtasidagi teng huquqli sheriklik munosabatlari tushuniladi. Pul kredit siyosati davlat tomonidan belgilanadi va uni Markaziy Bank amalga oshiradi/ albatta tijorat banklaro orqali. Uning yordamida har qanday davlat mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vazifasini hayotga tadbiq etadi. Pul

kredit siyosatini amalga oshirishning pirovard maqsadlari iqtisodiy o'sish, to'liq bandlikni, baholarning hamda to'lov balansining barqarorligini ta'minlashdan iborat. Bu maqsadlarga erishish uchun milliy valutani muomaladagi pul massasi, foiz stavkasi va milliy valuta almashinuv kursining optimal kattaliklarini ta'minlab turish zarur bo'ladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun Markaziy Bank qator vazifalardan foydalanadi. Pul-kredit siyosatining uchta asosiy vositasi ajratib ko'rsatiladi:

Hisob stavkasi;

Majburiy zahiralar normasi;

Ochiq bozordagi operatsiyalar.

Markaziy bank ular yordamida pul yoki asosan bank depozitlari ko'rinishidagi pul massasiga yoki foiz stavkasiga ta'sir o'tkazadi, taklifini o'zgartiradi va shular orqali pul-kredit muomalasini tartibga solib turadi. Pul-kredit siyosatini yuritish vositalaridan biri –majburiy bank zahira me'yorini o'zgartirish siyosatidir. Majburiy zahiralar – bu, kredit maqsadlari uchun ishlatilmaydigan bank omonatlarining bir qismidir. Zahira normasi ikki asosiy funksiyani bajaradi: bank likvidligini joriy

tartibga solish uchun sharoit yaratadi va kredit emissiyasini cheklaydi. Markaziy bank tijorat banklari Markaziy bankda ushlab turishga majbur bo'lgan zahiralarning eng quyi normasini o'rnatadi va shu vosita yordamida ular kreditlash qobiliyatiga, imkoniyatiga ta'sir etadi. Bu me'yor qanchalik yuqori bo'lsa, ortiqcha zahiralar shunchalik kam va tijorat banklarining kredit berish yo'li bilan «pullarni barpo etish»

qobiliyati past bo'ladi. Ilk majburiy zahira normalari AQSh da 1865 yilda joriy qilingan edi. Agar Markaziy bank majburiy bank zahirasini kamaytirsa, ortiqcha bank zahiralari ortadi, bu esa pul taklifining multiplikatsion ortishiga olib keladi. Masalan, ushbu me'yor 25 % bo'lsa, unda bankka qo'yilgan 800 so'mdan 200 so'm majburiy bank me'yorini tashkil etadi. Bunda bank faqat 600 so'mni qarzga berishi mumkin bo'ladi. Endi faraz qilaylik, me'yor 10 % ga tushiriladi, unda bank 720 so'mni qarzga berish imkoniyatiga ega bo'ladi va boshlang'ich pul taklifini 720 so'mga oshiradi. Majburiy bank zahirasi me'yorini ko'tarish yordamida pul taklifini kamaytiradi. Zero, bu banklarning ortiqcha bank zahiralari qisqarishiga olib keladi. Pul-kredit siyosatini o'tkazishda bu vosita butun bank tizimining asoslariga ta'sir etadi. Turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan majburiy zahira normalari turlichadir. Yuqori inflyatsiya darajasi sharoitida Janubiy Koreyada bu norma -100 foiz bo'lgan bo'lsa, Italiyada -25 foizni, Yaponiyada bor yo'g'i -2.5 foizni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida majburiy zahiralash normasi keyingi o'n yil davomida sezilarli darajada kamaydi xozirda 14 foizni tashkil etadi. Bunday pasayish pul multiplikator miqdorining kattalashishiga va albatta iqtisodiyotda pul taklifining ko'payishiga olib keladi. Tijorat banklari ortiqcha rezervlarining ko'payishi ularning aktiv operatsiyalarini ko'paytiriadi va bu iqtisodiyotning real sektori rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ochiq bozordagi operatsiyalar – Markaziy bank tomonidan davlat obligatsiyalarini (qimmatli qog'ozlarni) tijorat banklari va aholidan sotib olish va ularga sotish bo'yicha operatsiyalardir. Markaziy bank tijorat banklaridan yoki aholidan bu qimmatli qog'ozlarni sotib olar ekan, tijorat banklari zahiralarini sotib

olingan obligatsiyalar miqdori hajmida ko'paytiradi. Bu zahiralar pul bazasiga kiradi, ya'ni yuqori quvvatli pullar bo'lganligi uchun pul taklifi multiplikativ ko'payadi.

Xulosa

Markaziy bank tijorat banklari va aholiga obligitsiyalarni sotish bilan zahiralarni hamda tijorat banklarining kredit berish qobiliyatini kengaytiradi. Bu holda pul taklifi qisqaradi. Hozirda hamma mamlakatlarda pul miqdorini tartibga solishda ochiq bozordagi

operatsiyalarni, ya'ni davlat qimmatli qog'ozlarini taklif qilish usulidan keng foydalanilmoqda. Ushbu operatsiyalarni Markaziy bank asosan nufuzi katta banklar guruhi bilan birgalikda amalga oshiradi. Pul bozorida muomalada pul miqdori ortiqchaligi mavjud deb faraz qilamiz. Tabiiyki, Markaziy bank ortiqcha pul massasini kamaytirishga harakat qiladi. Buning uchun, o'zida mavjud bo'lgan o'zining qimmatli qog'ozlarini u ochiq bozorda aholi va banklarga taklif etadi, ular esa uni xarid qila boshlaydilar. Davlat qimmatli qog'ozlarini (sotish yoki xarid qilish yo'li bilan) taklifi oshib borgan sari, unga bo'lgan baho pasayadi, o'z navbatida, unga bo'lgan foiz (ya'ni, qimmatli qog'ozlarni sotib olganlarga foiz shaklida to'lanadigan haq) oshadi, bu esa unga bo'lgan talabni oshiradi. Banklar va aholi qimmatli qog'ozlarni ko'proq xarid qila boshlaydi, pirovard natijada banklarning zahiralari qisqaradi, o'z navbatida, bu hol pul taklifining bank multiplikatoriga teng nisbatda qisqarishiga, shuningdek, bank zahirasi va pul taklifining ortishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ham pul kredit siyosatini yuritishda bu vositaning rolini keskin oshirishni maqsad qilib olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1.O'zbekiston Respublikasining «Markaziy bank to'g'risida»gi qonuni. 15.11.2019, №O'RQ-582.
2.O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni. 2019 yil 07 noyabr, №O'RQ-580.
3.O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni. 2019 yil 07 noyabr, №O'RQ-578
4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
5.Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. T.: Moliya. 2017 yil. 148-bet
6.Mamadiyarov Z.,M. Maxmudova .Bank ishi. T.:2021 yil.1-jild.